



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

2023 YIL 23 YANVAR



## PREZIDENT HARBIY TIBBIYOT MUASSASALARINI BO'RIB KO'RDİ

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 13 yanvar kuni Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospitalini borib ko'rdi.**

Ilgari bu shifoxonaning binolari ham, ish uslubi ham eski edi. Davlatimiz rahbari 2018 yilda bu yerga kelib, uni rekonstruksiya qilish va zamonaviy jihozlash bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Shu asosida katta hajmdagi qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Tibbiy uskuna va jihozlar yangilandi. Boshqaruvda klinik menejment joriy etildi.

Gospital jami 700 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, bu yerda harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, soha faxriylari bepul davolanadi. Shuningdek, boshqa bemorlarga

ham pullik xizmat ko'rsatiladi. Buning uchun 286 xil diagnostik tekshiruv, 600 dan ortiq amaliyotlar yo'lga qo'yilgan, 30 ga yaqin ixtisoslashgan bo'limlar tashkil etilgan.

Xususan, jarrohlik bo'limlari uchun 8 qavatli yangi bino barpo etilgan. Davlatimiz rahbari undagi sharoitlar bilan tanishdi. Bunday shifoxonalarni hududlarda ham tashkil etish zarurligi ta'kidlandi. Harbiylardan tashqari sportchilar va ayollarni davolash bo'yicha tavsiyalar berildi.


Ta'lim bilan amaliyot bog'liqligi ham samarali yo'lga qo'yilgan. Ilgari bunday mutaxassislar Tashkent tibbiyot akademiyasining Harbiy tibbiyot fakultetida tayyorlanar edi. Prezidentimizning 2020 yil 22 oktabrdagi "Harbiy tibbiyot sohasida kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mazkur fakultet negizida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi tuzildi.

(Davomi 2-betda)

Hikmat



*Vatan himoyasi – muqaddas burch.*



Hikmat

## PREZIDENT HARBIY TIBBIYOT MUASSASALARINI BO'RIB KO'RDİ



(Boshi 1-betda)

Ahamiyatlisi, ushbu ta'lim maskani Markaziy harbiy klinik gospital yonida qurildi. Prezident bu yerdagi sharoitlarni ham ko'zdan kechirdi.

Akademiya 250 nafar talaba va tinglovchiga mo'ljallangan. Bu yerda bo'lajak harbiy shifokorlar o'qitiladi hamda tibbiyot xodimlari qayta tayyorlanadi. O'quv binosida 2 ta fakultet, 5 ta kafedra, 2 ta markaz, institut va ma'muriyat joylashgan. Xonalarda o'quv va mashg'ulotlar uchun barcha sharoit yaratilgan. 186 o'rinli yotoqxona ham bor.

Davlatimiz rahbari akademiyadagi ta'limning mazmuniga alohida ahamiyat qaratdi.

- Bino va sharoitlar yaxshi, lekin bu ishning boshlanishi. Endi asosiysi harbiy tibbiyotning mazmunini, mohiyatini tushunib, o'qishni to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Buning uchun xorij tajribasi asosida pedagogik, ilmiy va amaliy tizim yaratish zarur. Bu tizim boshqa tibbiyot oliy o'quv yurtlariga muqobil va raqobatchi, bitiruvchilar o'z yo'nalishi bo'yicha namuna bo'lishi kerak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Akademiyada xorijiy boshqaruvni joriy etish, ilk bitiruvchilarni Turkiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarga malaka oshirishga yuborish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'ZA

**Toshkent tibbiyot akademiyasining yakunlangan 2022 yil sarhisobiga bag'ishlangan Ilmiy kengash yig'ilishi davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasiga munosabat bilan boshlandi.**

### DAVLATIMIZ RAHBARI MUROJAATNOMASINING IJROSI AMALDA

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini qamrab olgan tarixiy Murojaatnoma bundan keyin barchamiz uchun dasturulamal bo'lishi kerak, deb o'ylayman.

Ayniqsa, muhtaram Prezidentimizning ta'lim va aholi salomatligini saqlash masalalariga bo'lgan yuksak e'tibori va kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar tahliliga bag'ishlangan sermazmun taklif va mulohazalari tibbiy oliy ta'lim tizimidagi eng muhim yo'nalishlarimizni belgilab berdi.

Ilmiy kengash a'zolari (professor-o'qituvchilar) tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarda Murojaatnomaning mazmun-mohiyati:

"Xalqimiz maktab, bog'cha va shifoxonalar ko'payishini, ta'lim va tibbiyot sifati oshirilishini istaydi. Farzandlar kamolotini o'ylaydi", degan Prezidentimiz siyosatining asosiy g'oyasi aks etib turdi.

Davlatimiz rahbarining bepul tez tibbiy yordamning kafolatlanishi, sohaga ajratilayotgan mablag'lar har bir bemorga yetib borishi uchun sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilishi kutilayotgan ko'lami keng ustuvor topshiriqlar mamlakatimizdagi nufuzli tibbiyot oliygohlari qatori Toshkent tibbiyot akademiyasi zimmasiga ham qator vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalar boshida sifatli ta'lim, yoshlarga yaratib berilayotgan har tomonlama qulaylik, ilm uchun kunda bir investitsiya kiritishdek dolzarblik muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy kengash ana shunday ko'tarinkilik bilan Yangi yilda ham o'z ishini davom ettiradi.

Yangi yilda ta'lim sifat va samaradorligi, talabalar iqtidori va tashabbuslarini har tomonlama himoyalash doimgiday Kengash diqqat markazida bo'ladi.

**Alisher SHADMANOV,**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori



## YANGI YILDAN TIBBIYOT SOHASIDA NIMALAR O'ZGARADI?

**Bu yil 1 yanvardan bolalar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollarni yanada sifatli tibbiy xizmat bilan to'liq qamrab olish uchun «tibbiyot brigadalari» tarkibiga qo'shimcha 4 900 ta o'rta tibbiyot xodimi (pediatriya hamshirasi va doya) shtati ajratiladi.**

«O'zbekiston Respublikasi faxriy donori» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga biryo'la beriladigan pul mukofoti summasi BHMning 5 baravaridan 15 baravarigacha (1,5 mln.dan 4,5 mln. so'mgacha) oshiriladi.

Shuningdek, ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslar uchun qulay bo'lgan vaqtda yillik asosiy mehnat ta'tiliga chiqish imkoniyati yaratiladi.

Shahar jamoat transportining barcha turlaridan (yo'nalisli va yo'nalisiz taksilardan tashqari) bepul foydalanish, davlat sanatoriy-kurortlarida davolanish uchun

yo'llanmalarni navbatsiz olishi mumkin bo'ladi.

Doimiy (yiliga kamida 3 marta qon topshiruvchi) donorlar va ularning yaqin qarindoshlari (ota-onalari, turmush o'rtog'i, farzandlari, aka-uka va opa-singillari, turmush o'rtog'ining ota-onalari) stasionar davolanish jarayonida, zarurat tug'ilganda, qon va uning tarkibiy qismlari bilan bepul ta'minlanadi.

Donorlarni bepul ovqat bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlarning qiymati respublika bo'yicha bir xil – mehnatga haq to'lash eng

kam miqdorining 3 foizi (27 ming 600 so'm) belgilanadi.

Immun donorlarga o'tkazilgan immunitizatsiya va topshirilgan plazmasi uchun haq to'lash miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oshirilishi darajasi doirasida mutanosib ravishda indeksatsiya qilib boriladi.

Shoshilinch holatlarda donor qonining tarkibiy qismlarini tashish uchun tez tibbiy yordam xizmatidan foydalanishga ruxsat beriladi.



## SIFATLI TA'LIM HAMJIHATLIKDAN BOSHLANADI...

**Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan e'tibor, Vatan taraqqiyotiga bo'lgan e'tibordir.**

Olmazor tumani va "Yoshlik" talabalar shaharchasi hokimlarining Toshkent tibbiyot akademiyasiga tashrifi davlatimiz rahbarining Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar ijrosiga bag'ishlandi.

Davra suhbatini tusini olgan ochiq muloqotda Toshkent shahri Olmazor tumani va "Yoshlik" talabalar shaharchasi hokimiyatining Yangi yildagi istiqbolli loyihalari to'g'risida so'z bordi.

Endilikda Toshkent tibbiyot akademiyasi talaba-yoshlari bilan Olmazor tumani hokimligi o'rtasidagi manfaatli aloqalar ta'lim-tarbiya masalalari doirasida yanada kengayadi.

Uchrashuvda mazkur masalalar yuzasidan takliflar eshitildi.

Tuman mahallalari bilan muntazam ishlash, yoshlar bandligini oshirish ayniqsa ijarada yashaydigan talabalarga mahalla raislari, mahalla yoshlar yetakchilarining e'tiborini kuchaytirish kabi dolzarb masalalar borasida fikrlar almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasini butun xalqimiz singari oliy ta'lim tizimi xodimlari ham katta qiziqish bilan qarshi oldi. Unda uzluksiz ta'lim turlarining hamma bosqichlariga oid ustuvor vazifalar aniq qilib belgilab berilgan.

Ma'lumki, oliy ta'lim tizimi

uzluksiz ta'limning eng asosiy bo'g'ini sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'tgan yillar mobaynida bu sohaga hurmatli Prezidentimiz tomonidan katta e'tibor qaratilib, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasiga oid ko'plab me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Qabul qilingan hujjatlarda maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limdan keyingi ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarga oid islohotlar o'z aksini topgan. Mazkur sa'y-harakatlar zamirida yoshlarimizga ta'lim va tarbiya berish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq eng oliy maqsadlarimiz mujassam.

Uchrashuvda akademiya rektori A.Shadmanov, Tosh-

kent shahri Olmazor tumani hokimi A.Umarxonov, "Yoshlik" talabalar shaharchasi hokimi Sh.Nabiyevlar 2023 yilda Toshkent tibbiyot akademiyasi talaba-yoshlarining ma'naviy tafakkurini boyitishga xizmat qiladigan sifatli ta'lim tizimiga alohida e'tibor zarurligini aytib o'tishdi.

Shuningdek, talabalarining zamonaviy yashash sharoitlari va sog'lom turmush tarziga oid qator muhim masalalarda ham kelishuvlarga erishildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Murojaatnomada purma'no bir gapni ta'kidladilar: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!".

Darhaqiqat, Prezidentimiz e'tirof etganlaridek, ilm-ma'rifatsiz taraqqiyot bo'lmaydi. Shunday ekan, mazkur o'zaro hamkorlik albatta o'z ijobiy samarasini berishi shubhasiz.

TTA Matbuot xizmati





## SEULDA TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING VAKOLATXONASI OCHILDI

**Janubiy Koreya poytaxti –  
Seul shahrida Toshkent tibbiyot  
akademiyasi (TTA) o'zining  
rasmii vakolatxonasini ochdi.**

Vakolatxonaning ochilish marosimida Toshkent tibbiyot akademiyasi vakillari, akademianing Janubiy Koreyadagi hamkorlari, mamlakatimizning Seuldagi diplomatiya vakolatxonasi xodimlari, akademiya tahsil olayotgan iqtidorli talabalar va ularning ota-onalari ishtirok etdi.

Akademiyaning xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Murod Jafarov tadbir ishtirokchilariga Toshkent tibbiyot akademiyasi faoliyati va uning imkoniyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot berdi. Ishtirokchilarga TTA faoliyatiga oid videoroliklar namoyish etildi. Tadbirda ishtirok etgan hamkorlar Janubiy Koreyadan ko'plab talabalarini Toshkent tibbiyot akademiyasida o'qishga yuborish, shuningdek, akademianing ko'plab talabalarini Koreyaning nufuzli tibbiyot oliygohlariga qabul qilishni tashkil etish hamda bu borada o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

Shuni qayd etish kerakki, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida barcha sohalarda bo'lgani kabi, tibbiyot yo'nalishida ham samarali hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan. Hozirgi paytda Toshkent tibbiyot akademiyasi Koreya Respublikasining 20 dan ortiq universiteti va klinikalari bilan hamkorlik qilmoqda. Seulda Toshkent tibbiyot akademiyasi vakolatxonasining ochilishi o'zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadi.

O'zA

## VATAN HIMOYASI – MUQADDAS BURCH

**Har yili an'ana bo'lib kelganidek yilimizning  
ibtidosida, ya'ni 14 yanvarda Vatan himoyachilari  
bayrami Respublika miqyosida keng  
nishonlanadi. Unda Vatanimiz sharafini, hududiy  
birligini, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy mohiyatini  
sidqidildan himoya qilgan xodimlar xizmati va  
mehnatiga munosib taqdirlanadilar.**

Hadisi shariflarda "Vatanni sevmok – iymondandur", deyiladi. Darhaqiqat haqiqiy imyon sohibi o'z Vatani hamma narsadan ulug' va muqaddas biladi, undagi fuqarolarni ardoqlaydi. Kelajak avlodning ma'naviy dunyoqarashi, salohiyati, iqtidori, insoniyligi darajasi ana shu muhabbatning ijtimoiy tabiati va mazmun-mohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Vatan – insonlarning tabiiy, biologik, nikoh, qon-qardoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, ruhiy munosabatlari asoslangan turmush birligi va o'zaro mas'uliyat orqali chambarchas bog'langan ijtimoiy hududdir. U jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos mahsuli sifatida o'zining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiga ega. Uning dastlabki shakllari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo'lgan. Keyinchalik jamiyatda ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, xususan shaxsiy ehtiyojlar va xususiy mulkning paydo bo'lishi natijasida oilaning tarkibi, shakli va mohiyati o'zgarib, ona Vatan tushunchasi paydo bo'la boshlagan. Oila – Vatanning bir bo'laki, hujayrasidir. Ta'lim va tarbiya o'rni qo'yilgan oilalar yaxshi jamiyatni, yaxshi jamiyatlarda esa uyg'unlashib qudratli va nufuzli davlatni tashkil qiladi. Bunday davlat esa o'z ona Vatani rivojlantirib, jahon andozalari darajasiga olib chiqish bilan birga uni hududiy va axborot tahdidlaridan mustahkam muhofaza qiladi.

Oilaning ma'naviy, ahloqiy qiyofasi asrlar mobaynida ajdodlarimizning bilim va tajribalari, madaniy qadriyatlariga asosida, shuningdek, zamondoshlarimizning erishgan va erishayotgan yutuqlari negizida paydo bo'ldi. Moziyga xolisona nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalqining oilaviy an'ana va urf-odatlar juda qadim zamonlardan boshlanganiga guvoh bo'lamiliz. Jumladan, eng ko'hna bitiklardan biri bo'lgan "Avesto"da oila, inson salomatligi va komillikning debochasi sifatida alohida ulug'langan. "Avesto"da insoniy burch faqat ahloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qol-

masdan, balki yaxshi oilaviy turmush, sadoqatli yor va zurriyodlar xususida o'ylashlari zarurligi ham ta'kidlanadi. Unda qayd etilishicha erkak kishi avvalo uylanish uchun moddiy va ma'naviy jihatdan to'q bo'lishi hamda jismonan baquvvat bo'lishi lozim.

Farzandlar ma'naviy, jismoniy va ruhiy jihatdan salomat, bolalik, o'smirlik yillari betalafot va muammosiz kechishi uchun oila o'ziga yuklatilgan bir qator vazifalarni bajarishi lozim. Oilaning ijtimoiy vazifalariga – farzandlarni milliy ma'naviyat va sog'lom muhit asosida tarbiyalash, komil inson qilib kamolotga yetkazish, ularni jamiyat va tabiatga nisbatan o'zaro munosabatlarni shakllantirish, vaqtda dam olish va salomatlikni ta'minlash hamda avlodlarni vatanparvarlik, insonsevarlik ruhida tarbiyalash kabi vazifalar kiradi.

Vatanning haqiqiy fuqarolari oldiga qo'yilgan muqaddas vazifalaridan bittasi – komil insonni tarbiyalash, zurriyodlarni jismonan, ma'naiy, aqlan yetuk qilib, ota-onasiga, Vatanga, kindik qoni to'kilgan muqaddas zaminiga sadoqatli qilib tarbiyalashdir. Vatandoshlarning o'zaro ahilligi, ma'naviyati, dunyoqarashi va bilimlari ko'lami oila munosabatlari madaniyati nazariyasining ustubiy debochasini tashkil qiladi. Agar bu omillarning birortasi muvozanatga putur yetsa, oila atalmish qo'rg'onning devorlariga darz tushadi, oqibat esa oila buziladi, Vatan parokanda bo'ladi.

Qutlug' bayramda ona Vatanimiz gullab-yashnashi, undagi fuqarolarning turmushi sifati va salomatligi benuqson bo'lishi uchun astoydil kurashayotgan Akademiyamiz xodimlarini bayram bilan tabriklaymiz. Vatanimizga ko'z tegmasin, fuqarolarimiz salomatligi benuqson bo'lsin deymiz.

**Alijon FAQIROV,**

**"Ta'lim fidoyisi" ko'krak nishoni  
sovrindori, Sog'liqni saqlash a'lochisi,  
Qutbiddin NIZOMOV,  
Turon Fanlar akademiyasi akademigi**



**Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati inson hayotida naqadar ulkanligini ta'kidlab, 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nomlanishini taklif etdi.**

## TA'LIM FIDOYILARI KO'PAYAVERSIN

Albatta, bularning insonlar oilasi va jamiyatidagi o'rni beqiyosdir. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy: "Ta'lim va tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokatdir" deganlarida naqadar haq edi. Nainki, irsiyati qanchalar pok bo'lmasin, ta'lim berish va munosib tarbiyalash yo'lga qo'yilmas ekan inson hech qachon mukammal najot yo'lga chiqa olmaydi.

Bu borada biz yana ulug' jadedchi Abdulla Avloniy merosiga murojaat qilamiz: "Biz birinchi navbatda inson, ikkinchi navbatda musulmon, uchinchi navbatda fuqaromiz" deganlarida insoniylikning hamma narsadan yuqoriligini e'tirof etgan edi. Darhaqiqat, insoniylik o'z ichiga samimiylik, poklik, mehrlilik, muruvvatlilik, bag'rikenglik, saxiylik, rostgo'ylik, oilanavislik, vatanparvarlik, kamtarlik, andishalilik, fidoyilik, farosatlilik, hushyorlik, mardlik, jonkuyarlik, qat'iylilik, puxtalik, vazminlik, ulug'vorlik, mulohazalik, nozikta'blik, hamdardlik, oddiylik, umidbaxshlik, mehnatkashlik, mas'uliyatlilik, e'tiqodlilik, tashabbuskorlik, ahloqlilik, bilimdonlik, mustaqil fikrlilik, shirinsuxanlik, ma'naviy va axloqiy softlik kabi ko'pdan-ko'p xislatlarni oladi. Ularni esa munosib ta'lim va tegishli tarbiyasiz olib bo'lmaydi. Tarbiya – vijdon ishidir, ta'lim esa fanning vazifasi. Inson voyaga yetgani sayin ular bir-birini to'ldira boradi, hayotiy tajribalar esa vijdon, ta'lim va tarbiyani boyitadi. Oila, jamiyat, davlatning gullab-yashnashi xalqning farog'ati shubhasiz olijanoblikka, xulq-atvorga, insoniylik darajasiga bog'liq, bularning aksariyati tarbiya mahsulidir. Tarbiya – ahloq va oqillikka tayanadi, ahloq yaxshi fazilatlarini namoyon qilsa, oqillik o'zgalarning nomaqbul g'oyalari, tushunchalari va illatlaridan muhofaza qiladi. Odam bolaligidanoq yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'yamasligi kerak, avlodlarni ham ularsiz yo'lga chiqarmaslik lozim. Hadisi shari-flarda: "Alloh go'zaldir, u go'zallikni sevadi" deyiladi. Insondagi go'zallik birinchi navbatda undagi iymon ne'mati, xulq-atvorning chiroylilini, ahloqning go'zalligi bilan namoyon bo'ladi. Ta'limsiz odamlar dag'al, beshafqat, qashshoq va baxtsizlikka muhtalo bo'ladi.

Shularni e'tiborga olgan holda yurtboshimiz sifatli ta'lim yili deb ulug'lagan Yangi yil boshida o'rta va oliy ta'lim sohasida

ko'p yillik xizmatlari bilan alohida ajralib turgan bir guruh professor-o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda ta'lim berish uchun "Ta'lim fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Taqdirlanganlar orasida 2022 yilda "Eng yaxshi bolalar jarrohi" nominatsiyasining g'olibi, akademiyamiz xodimi, Sog'liqni saqlash a'lochisi Alijon Faqirov Zohidovichning borligi Akademiyamiz jamoasi uchun quvonarlidir.

Mutafakkirlar tarbiya ta'sir qiladigan kishilarni uch toifaga taqsimlaydilar. Birinchisi – oq bilan qorani tanib ulgurman bola. Uning tabiati hali yomonlik g'ubori bilan bulg'anmagan, botil ishlar bilan zulmatlanmagan bo'lib, uni rosti rohg'a osonlik bilan solish mumkin. Ikkinchisi – oq va qorani tanib ulgurman bola. Ularni tarbiyalash nisbatan qiyinroq kechadi, ammo bu borada izchillika erishilsa albatta natija ijobiy bo'ladi. Uchinchisi – oilada botil hayot va fosiq muhitda ulg'aygan kishi. Ularni tarbiyalash – nina bilan quduq qazishdek gap. "Ta'lim – so'z va o'rgatish bilan, tarbiya esa amaliyot va tajriba bilan bo'ladi" degan edi Abu Nasr Farobiy.

*Ne xush xislat erur ahloqi neku,  
Neki qilding, kelur oldingga o'tru.  
Muruvvat pesh qilgil hayyi sone'  
Yeturgay qilmayin ajringni zoye.*

Nufuzli akademiyamiz ko'pgina xodimlari rektorimiz A.Shadmanovning bevosita rahbarligida o'tkazilayotgan katta islohotlar natijasida bunday tanlovlarda qatnashib, ta'lim fidoyisi nishonlariga ega bo'ladi deb umid bildiramiz. Haqiqiy ta'lim fidoyilari esa o'zlariga o'xshagan ilmiy, muomala madaniyati yuksak, tibbiy deontologiya va kasb etikasidan boxabar shifokorlarni tarbiyalab, xalqimizga yetkazib beradi.

**Qutbiddin NIZOMOV,  
Sog'liqni saqlash a'lochisi,  
Xalqaro Turon Yozuvchilar uyushmasining haqiqiy a'zosi,  
Hojjakbar USMONOV,  
Umumiy va bolalar jarrohligi kafedrasi assistenti,  
oliy toifali jarroh**



**PREZIDENT DAVLAT STIPENDIYASI SOHIBASI**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
1-son o'liy shifokorlikda Ichki kasalliklar kafedrasi Kardiologiya mutaxassisligi bo'yicha 3-kurs  
Magistratura talabasi  
Mahkamova Munisa Majidovna

Ilmiy rahbari: tibbiyot fanlari doktori, professor Nurillaeva N.M.

## PREZIDENT STIPENDIYASI SOHIBASI

Toshkent tibbiyot akademiyasi-ning Kardiologiya yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi kurs magistr talabasi Munisaxon Mahkamova Majidovna 2022-2023 o'quv yili uchun Prezident stipendiyasi sohibasi bo'ldi.

Mahkamova Munisa «MDH yosh olimi – 2021» tanlovi g'olibasi, TTA akademik N.M.Majidov nomidagi stipendiya va «Yosh tadqiqotchi» nominatsiyasi hamda 2022 yilgi

Xalqaro Kardiologlar kongressi «Yosh olimlar» tanlovida 3-o'rin sohibasi. Bundan tashqari, o'z ilmiy faoliyati davomida 40 dan ortiq maqola va tezislarni chop ettirgan, shu bilan birga o'quv qo'llanma va patent muallifi ham hisoblanadi. Akademiya rahbariyati, jamoasi hamda talabalari nomidan Munisaxonning kelgusida ilmiy izlanishlariga omad tilaymiz.



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnoma – mamlakat siyosiy hayotidagi eng muhim voqea hisoblanadi. Prezidentimiz 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomladi.**

Milliy ta'limning barcha bosqichlari rivoji sohalarida olib borilayotgan islohotlardan darak beradi. Biz, oliy o'quv yurti xodimlari uchun bu katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida o'qitish darajasini oshirish masalalariga, uning zamonaviyligi, bunyodkorligi, eng muhimi – xalqaro miqyosida raqobatbardosh, mamlakatni yanada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va farovonlik sari yetaklashga qodir yosh mutaxassislarni tayyorlashga yurtboshimiz va hukumatimizning qaratayotgan mislsiz e'tiborni his qildik.

Davlat rahbari o'z nutqida so'nggi yillarda mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari soni 2,5 barobar – 198 taga ko'paygani, oliy ta'limga qabul qilish 9 dan 38 foizga oshganini ta'kidladi. 2022 yilda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'lar 1,5 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan qariyb olti barobar ko'pdir. Nano va biotexnologiyalar, raqamli geologiya kabi 18 ta yangi ilmiy yo'nalishlar tashkil etildi.

Bugungi kunda 820 nafardan ortiq xodim va o'n ming nafardan ortiq talaba tahsil olayotgan Toshkent tibbiyot akademiyasi jamoasi buni bakalavriat, magistratura, doktorantura va klinik ordinaturalarda o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yangi marra va maqsadlar, deb biladi.

Nima qilindi va yaqin kelajakda nima qilish kerak? Jahon tibbiyot ta'limi hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni davom etmoqda, xalqaro hamkorlik rivojlanmoqda. 80 dan ortiq xorijiy universitetlar bilan memoran-

dumlar va hamkorlik shartnomalari imzolani, ta'lim dasturi takomillashtirilmoqda. Talabalar o'qituvchilari bilan birga o'zlarini doimo takomillashtirib boradilar. Bugungi talabalarining aksariyati nufuzli stipendiya sovrindorlari, "Zakovat" respublika intellektual olimpiadasi, xalqaro olimpiadalar g'oliblari. Shuningdek, g'olib bo'lgan talabalar mamlakatimizdagi

Zero, Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, tajriba tariqasida 2022/2023 o'quv yilida barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlarining bakalavriat, magistratura va klinik ordinaturalarda talabalari o'z mutaxassisligi bo'yicha oilaviy poliklinikalarda to'liq shtat birligida ishlashi mumkin. Bu tajriba orttirish uchun yaxshi imkoniyat bo'ladi. Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan holda, ular nafaqat o'z bilimlarini amaliyotga qo'llash, balki bemorlarning intilishlarini tushunish va ularga ko'proq e'tiborli bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday imkoniyatlar O'zbekiston kelajagi uchun va tibbiyot sohasini samarali rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun katta poydevor hisoblanadi.

Akademiya jamoasi bu bosqichda to'xtab qolmaydi, biz rivojlanish va o'zimizni anglashga intilamiz, respublika va xalqaro olimpiadalar va forumlarda qatnashamiz, xalqaro

grantlarni qo'lga kiritamiz, talaba va o'qituvchilarimizning bilimga bo'lgan intilishi va kasbiy mahoratini har tomonlama rag'batlantiramiz, yuqori sifatli va yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatishga qodir shifokorlarning munosib avlodini tayyorlaymiz.

Ta'lim – bu bizning kelajakka yo'llanmamizdir, chunki ertangi kun unga bugun tayyorlanayotganlarga tegishlidir. Mutafakkirlardan biri aytganidek: "Muvaffaqiyat sari yo'l – bu bilimni doimiy ravishda izlash yo'lidir".

**Gulnara RAXIMBAYEVA,**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi professori, tibbiyot fanlari doktori**

## BILIM SIFATI – USTUVOR VA ZARUR MASALA



tibbiyot muassasalaridan keyingi faoliyati uchun magistratura yo'nalishlari bo'yicha xorijda amaliyot o'tash va malaka oshirishga yuboriladi.

2023 yilda yana 140 ta oilaviy vrachlik punkti va poliklinika, 520 ta borish qiyin va chekka mahallada ixcham vrachlik punktlari barpo etish rejalashtirilganidan akademiya mamnun. Bu "Avvalo – inson, keyin jamiyat va davlat" tamoyilini yana bir bor tasdiqlaydi, shuningdek, nafaqat mamlakatimiz fuqarolariga balki yosh mutaxassislar kelajagiga, ularning bandligiga g'amxo'rlik va e'tibor namunasidir.



## “WIKISTIPENDIYA MARAFONT”NING 1-MAVSUM G’OLIBI ANIQLANDI

Salkam 8 oy davomida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil qilingan «Wikistipendiya marafoni»ning birinchi mavsum yopilish marosimi bo’lib o’tdi.



Unda mukofot jamg’armasi 300 milliondan ortiq bo’lgan marafonning birinchi mavsum g’oliblari e’lon qilindi.

1-o’rinni Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi Jahongir Boboyev qo’lga kiritdi va 50 million so’m bilan taqdirlandi. Qolgan sovrindorlarga 30, 20 hamda 10 million so’mdan pul mukofoti taqdim etildi.

Yopilish marosimida Yoshlar ishlari agentligi va keng jamoatchilik vakillari, ishtirokchilar, jurnalist hamda blogerlar, shuningdek, o’zbekcha Vikipediya hissa qo’shib kelayotgan yosh foydalanuvchilar ishtirok etdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida navbatdagi ilmiy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining tavsiya etilgan jurnallari maqomini oldi.

## OLIJ ATTESTATSIYA KOMISSIYASI TOMONIDAN TAVSIYA ETILGAN JURNAL

Hozirgi vaqtda xalqaro ma’lumotlar bazalarida ilmiy noshirlik ishlarining ko’payishi jahon bozorida jadal rivojlanayotgan raqobatni keltirib chiqarmoqda. Ilmiy davriy nashrlarning sifatini yaxshilash mamlakatda ilmiy jamoatchilik samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida tibbiyot ilmida faoliyat olib borayotganlar uchun “Journal of Education Scientific Medicine” ilmiy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasidan ro’yxatdan o’tdi, tavsiya etilgan onlayn jurnallar ro’yxatiga kiritildi.

Mazkur jurnalda maqolalarni tahrirlab, Google Scholar va MDA orqali (indekslanadi) tekshiriladi.

Shuningdek, tayyorlagan maqolalarni onlayn tarzda ro’yxatdan o’tkazish mumkin bo’ladi. Maqolaning noyoblik darajasi tekshirilib, jiddiy taqrizdan o’tkaziladi

## MOBILLIK DASTURI – AMALDA

Mobillik dasturi doirasida TTA talabalaridan iborat delegatsiya Irkutsk davlat tibbiyot universitetiga (IDTU) tashrif buyurdi.

Ma’lumot o’rnida aytish kerakki mobillik dasturining maqsadlari o’zaro bilim va tajriba almashtirish bo’lib, oliyog’lar o’rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan. Tashrif davomida TTA delegatsiyasi va IDTU rahbariyati tanishuvi bo’lib o’tdi. Uchrashuv davomida o’zaro ilmiy loyihalar va tadqiqot ishlari o’rganib chiqildi.



## O’ZBEKISTON ARMIYASI DUNYODAGI ENG KUCHLI ARMIYALAR REYTINGIDA 62-O’RINI EGALLADI

«Global Firepower»ning 2023 yilgi dunyodagi eng kuchli armiyalar reytingida O’zbekiston 145 ta davlat orasida 62-o’rinni egalladi.

Ta’kidlanishicha, O’zbekiston havo kuchlari tarkibidagi samolyotlarning umumiy soni 197 ta: 58 ta qiruvchi samolyot, 20 ta hujumchi samolyot, 13 ta harbiy transport samolyoti, 7 ta o’quv samolyoti, 99 ta vertolyot va 33 ta harbiy vertolyot. Shuningdek, armiyada 420

ta tank, 197 ta o’ziyurar artilleriya moslamasi va 143 ta yoppasiga o’q uzish tizimlari mavjud.

O’zbekistonda xizmatni o’tashga yaroqli inson resurslarining umumiy soni 13,5 million kishini tashkil qiladi. Har yili harbiy chaqiruv 622 ming kishiga to’ldirilmoqda. Ayni paytda

O’zbekiston qurolli kuchlarida 65 ming kishi xizmat qilmoqda.

Reytingda kuchli uchlikni AQSH, Rossiya va Xitoy egalladi. Qo’shnilarimiz Qozog’iston 63-o’rin, Turkmaniston 82-o’rin, Qirg’iziston 107-o’rin, Afg’oniston 114-o’rin, Tojikiston 120-o’rindan joy oldi.

O’za



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023 yil yanvar)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	Nevrologiya va tibbiy psixologiyai	professor – 1,0 dotsent – 1,0
2.	Onkologiya	assistent – 0,75
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	Oilaviy tibbiyotda akusher va ginekologiya	assistent – 1,0
2.	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklari	assistent – 0,75
3.	Anesteziologiya va reanimatologiya	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Pediatrya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Pedagogika, psixologiya va tillar	kafedra mudiri – 1,0
2.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	kafedra mudiri – 1,0
3.	Ftiziatriya va pulmonologiya	assistent – 1,0
4.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklar	dotsent – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent – 1,0
2.	Atrof-muhit gigiyenasi	assistent – 1,0
3.	Jamoat sog'liqni saqlash maktabi	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMX fakulteti</b>		
1.	Jamoat salomatligi va menejment	assistent – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
1.	Vrachlar malakasini ochirish	assistent – 1,0

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.**  
Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
Bepul tarqatiladi